



## Semantic characteristics of the word “FATHER” among the words dedicating relationship in uzbek folk-tales

Hamid BOZOROV<sup>1</sup>

Termiz State University

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received April 2021  
Received in revised form  
28 April 2022  
Accepted 20 May 2022  
Available online  
10 June 2022

**Keywords:**

human spirituality,  
communication behavior,  
kinship,  
kinship,  
blood kinship,  
community kinship,  
father,  
folk oral creativity,  
cultural value,  
father's profession,  
father's country.

### ABSTRACT

In the article it was revealed that among the words denoting kinship in Uzbek folk tales, there are other peculiarities, except for some semantic aspects related to the use of the word “FATHER”. In the article, the scope of use of the lexeme FATHER among lexemes representing kinship in fairy tales was studied. In determining the meaning of the word father used in the text, it was found that the previous or next sentence has a great role. In this sense, this article describes the semantic features of the lexeme father in Uzbek folk tales. It was considered that the role of folk oral creativity in enriching human spirituality, moral and moral education, and the role of folk tales in this is important.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss5/S-pp217-221>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## O'zbek xalq ertaklarida qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar orasida “OTA” so'zining semantik xususiyatlari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

inson ma'naviyati,  
muloqot xulqi,  
qarindosh-urug'chilik,  
qon-qardoshlik,  
qavm-qardoshlik,  
ota,  
xalq og'zaki ijodi,  
madaniy qadriyat,  
ota kasb,  
ota yurt.

Maqolada o'zbek xalq ertaklarida qarindosh-urug'chilikni bildiruvchi so'zlar orasida “OTA” so'zining qo'llanishi bilan bog'liq ba'zi semantik jihatlardan tashqari boshqa o'ziga xosliklar bor ekanligi ma'lum bo'ldi. Maqolada har bir xalqning madaniylikni ko'rsatishda qarindosh-urug'chilikni ifodalovchi leksemalar orasida OTA leksemasining ertaklarda qo'llanish doirasi o'rganildi. Matnda ishlatilayotgan ota so'zining ma'nosini aniqlashda oldingi yoki keyingi jumlaning o'rni katta ekanligi aniqlandi. Shu ma'noda ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklarida ota leksemasining semantik xususiyatlari tavsif-

<sup>1</sup> Teacher, Termiz State University. Termiz, Uzbekistan. Ehamidbozorov65@gmail.com

---

langan. Inson ma'naviyatini boyitishda, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni katta ekanligi, bunda xalq ertaklari ahamiyatli ekanligi ko'rib chiqilgan.

## **Семантическая характеристика слова «ОТЕЦ» среди слов, обозначающих отношение в узбекских народных сказках**

---

### **АННОТАЦИЯ**

---

#### **Ключевые слова:**

духовность человека, коммуникативное поведение, родство, кровное родство, общинное родство, отец, устное народное творчество, культурная ценность, профессия отца, страна отца.

В статье анализируются особенности некоторых семантических критериев слов, которые обозначают родство в узбекских народных сказках, связанных с употреблением слова «ОТЕЦ». В статье изучена сфера применения лексемы ОТЕЦ среди слов, обозначающих родство в сказках. Рассматривался значение народных сказок в духовном обогащении и воспитании человека.

Globalashuv jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy o'zgarishlar inson omilining muhim o'ringa chiqishini ta'minladi. Insonning ongli mavjudot sifatidagi jihatlarini oliy maqom darajaga olib chiqish barcha fanlarning asosiy mezoniga aylandi. Shunga e'tiboran tilshunoslikning bugungi kundagi rivoji ham ko'p jihatdan strukturaviy emas, balki antroposentrik tamoyilga asoslanayotganligi bejiz emas. Sababi, bugungi kunda inson qalbi va jismini egallab olishga bo'lgan harakatlar, inson tafakkuriga bo'lgan hujumlar soni kundan kunga ortib boryapti. Shuni nazarda tutgan holda bugungi kun ilmfanida inson omili san'atning ko'plab turlari bilan bir qatorda adabiyot, xalq og'zaki ijodida bevosita inson madaniyati va ma'naviy dunyoqarashida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonning insoniyligini, o'zligini anglashiga ko'mak beruvchi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, shuningdek, hissiy-estetik ta'sir etuvchi manbalarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Inson ma'naviyatini ijobiy qarashlar bilan boyitish va egallangan boy xazinani namoyon etish shaxsning muloqot xulqida o'z aksini topadi. "Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat aholisining o'ziga xos urf-odatlar, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o'rganish mumkin emas. Chunki MX millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir" [1; 36].

Inson ma'naviyatini boyitishda, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni kattadir. Xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, ertaklar inson omilini ro'yobga chiqarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ertaklar inson ongida xalq hayoti haqidagi tushuncha va bilimlarini boyitadi, ruhiyatiga ta'sir etadi, qalbida turli his-tuyg'ular uyg'otadi. O'zbek xalq ertaklari qahramonlarining antroposentrik tadqiqida inson tasviri, uning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatish, xalq ertaklarimiz qahramonlaridagi xislatlari, odamiylik fazilatlar, boy etikasi va estetikasi manbai ekanini matndagi so'zlarning semantikasi orqali ko'rsatish bugungi kun tilshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Xalq ertaklarini har bir xalqning o'ziga xos milliy mentalitetining, madaniyatining ifodachisi, desak bo'ladi. "Madaniyatning milliy xarakteri tillarning va turli xalqlarning madaniyatini birgalikdagi harakatini, ularning jahon madaniyati fundamenti hamda butun bashariyatning muvaffaqiyatlari asosida ilgari qaror topgan o'zaro boyishini nazarda tutadi. Har qanday o'ziga xoslikdan va bir tomonlamalikdan xoli bo'lgan maqsadli mustaqil hayot butun insoniyatga tarqaladi, bir-biridan ma'naviy oziqlanadigan turli madaniyatlar bilan aloqaga kirishadi. Madaniy qadriyatlarining har tomonlama hisobga olinishi va saqlanishi hamda yangilarining shakllanishi millatga hayotni va uning tilda qanday aks etishini bir xilda tushunishga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy hayotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi umumbashariy qadriyatlarining almashinuviga bir necha bor olib kelgan. Bu jarayon hech qachon tugamaydi, u til vositalarini – chuqur ijtimoiy mazmunni tarqatuvchi so'z va iboralarning ishlatilishida o'z ifodasini topadi" [2; 26]. Bu ifodalar o'zbek xalq ertaklaridagi leksemalar tarkibida azal-azaldan xalqimizga xos bo'lgan qon-qarindoshlikni ifodalovchi terminlarda ham o'z aksini topgan. Bu so'zlarning qo'llanish jarayoni, verbal va noverbal jihatini ham har tomonlama tadqiq etish zarur. Ma'lumki, har qanday terminlar, shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlari ham qanchalik turg'un bo'lmasin, zamon o'tishi, jamiyatning o'zgarishi, oila, nikoh formalarining yangi shakllari va ular o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi bilan ishlatilib kelinayotgan qavm-qarindoshlik terminlarining ma'no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo'ladi [3; 9]. Bunday holatni I.A. Ismoilov "Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. (O'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman tillari materiallari asosida" lug'atida quyidagi turlarga bo'ladi: Hozirgi zamon o'zbek va uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari o'zlarining kelib chiqishi va ma'nosiga ko'ra, asosan, uchta katta gruppaga bo'linadi:

I. Qon-qarindoshlik terminlari.

II. Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlari.

III. Yaqinlik nomlari.

Izoh sifatida: I. Qon-qarindoshlik terminlariga o'zbek va uyg'ur tilida, shuningdek, boshqa turkiy tillarda *ona, ota, aka, tog'a, xola, buva (bobo), buvi, amma, nabira* kabi ma'nolarni ifodalovchi terminlar kiradi.

II. Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlarini *er, xotin; kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ona, qayin ota, quda, quda xola, quda buva; o'gay ota, o'gay ona, o'gay bola* singari terminlar tashkil etadi.

III. Yaqinlik nomlari deb atalgan bu guruh, asosan, o'zbek, uyg'ur tiliga xos bo'lib, bu termin yuqoridagi ikki guruh terminlardan butunlay farq qiladi, ya'ni bunga *tutingan* so'zi bilan – *tutingan ota; tutingan ona; tutingan o'g'il* singari ifodalangan terminlar kiradi [3; 11].

Qarindoshlikni ifodalovchi birliklarning ichida "Ota" leksemasi leksik-semantik jihatdan ertaklarimizda asosiy o'rinni egallaydi. O'zbek xalq ertaklarida "ota" leksemasining ma'noviy guruhlarini misollar orqali izohlashga harakat qilamiz.

– Otajon, siz podshoning oldiga borib savolini yeching va yurtni zulmdan qutqaring. Birinchi savolga: – Shirindan shirin – bola shirin. Ikkinchi savolga: Achchiqdan achchiq – o'lim achchiq, deng, – debdi [4; 6].

Yuqoridagi misol orqali farzandli, bola-chaqali er kishi (o'z bolalariga nisbatan) (O'TIL, 151 B) ishlatilgan ma'nodagi bosh so'zni ifodalayotganligini yoki hurmatlash ma'nosida ishlatilayotganligini aniqlash mushkulroq. Shuning uchun konteks bilan yaqindan tanishilmasa, asl ma'nosini ilg'ash qiyin.

Quyidagi misolga e'tibor qaratsak:

– *Podshohning qizini deysanmi, bolam, bizlar bir kambag'al bo'lsak, podshohga qanday qilib quda bo'lamiz, u qizining qaliniga qancha dunyo so'rar, unga bizning qudratimiz yetmaydi-ku, Xudoga shukr, sening aqling, idroking joyida, hamma narsaga aqling yetadi-ku! – debdi chol.*

– *Ota, siz podshohning qiziga sovchilikka boring, u sizga nima javob qaytarar ekan, so'ngra shunga qarab ish tutamiz, – debdi.*

– *Bolam, podshoh qizini podshohzodaga beradi, bizga o'xshagan kambag'alning sovchi bo'lib kelganini eshitishi bilan jallodga buyuradi [5; 85].*

Bu misoldan ko'rinib turibdiki, uylanish yoshiga yetgan farzandni uylantirish uchun sovchilikka borishdagi ota va bolaning suhbat berilyapti. Ertakdagi bolaning yoshi yigirmada, farzandini uylantirmoqchi bo'layotgan ota matnda “chol” leksemasi bilan ifoda etilgan. Bu holatning asl ma'nosini bilish ertakning boshiga, ya'ni bolaning tug'ilish jarayonini tahlil qilishga undaydi.

*Bir bor ekan, bir yo'q ekan, ilgari zamonda bir chol bilan kampir bor ekan. Ular uzoq vaqt farzandsiz umr kechirib, eri ellikka, xotini esa qirqqa kirganda bir o'g'il ko'rishibdi [5; 85].*

Ertakda yoshi ellikka borgan kishining chol sifatida berilishi qay darajada to'g'ri, degan savol tug'iladi. Bu so'zning izohi O'TILda quyidagicha beriladi:

Chol – qari er kishi; qariya; keksa, mo'ysafid. *Nuroniyl chol. Donishmand chol [6; 505].*

Ko'rinib turganidek, “chol” leksemasi – semantik jihatdan yoshi ellik yoshdan ancha katta bo'lgan kishiga nisbatan qo'llanuvchi so'z. Ammo ertak matnidan shuni anglashimiz mumkinki, chol so'zining ifodasi yoshga emas, balki tashqi ko'rinishga nisbatan ko'proq bog'liq. Ertakdagi ellik yoshli otaning ancha yillardan beri farzandsiz ekanligi, bu g'am orqasidan uning tashqi (biologik) ko'rinishi chol, ya'ni soch-soqoli oqargan, qaddi bukik mo'ysafid ko'rinishiga kelganini anglashimiz mumkin.

– *Nima uchun, ota? – debdi xaridor.*

– *Bir joyida chalasi bor ekan, tuzatish kerak, – debdi usta.*

– *Mayli, pul sizda tursin, – desa, – yo'q, olib turing, – deb pulni egasiga topshiribdi-yu, egami do'koniga olib kirib, tesha bilan mayda-mayda qilib tashlabdi.*

Ushbu misolda esa ota so'zi hurmatlash ma'nosida qo'llanganligi sezilib turibdi.

– *Ota, sizning ishlaringizni eshitib ishonmagan edim, kelganimga bir hafta bo'ldi, ishingizni kuzatib yurdim. Eshitganlarimning hammasi to'g'ri ekan, – debdi.*

– *Bolam, mening to'g'rimda nima eshitingiz? – debdi.*

– *Falon shahardagi novvoydan eshitgan edim. Ota, bir oy emas, bir yil deganda bir egar yasar ekansiz, sotgandan keyin qaytib olib sindirdingiz, yana shunday egarni yasaysiz, bir kun buni ham sindirasiz-ku, hech bo'lmasa bir yillik mehnatingizga achinmaysizmi? – debdi yigit.*

– *Qo'y, bolam, meni ishdan qoldirma!*

– *Yo'q, ota, men qo'ymayman, aytasiz.*

– *Uni aytishga vaqtim yo'q, – debdi usta.*

– *Keling, otajon, ayta qoling! – debdi yigit [7; 96].*

Yuqoridagi misolda hurmatlash ma'nosi bilan birga yana bir necha semantik ma'nolar ifodalarini ham tahlil qilishimiz mumkin. Jumladan, iltimos, achinish ma'nolari ifodalangan bo'lsa;

– *Yo'q, ota, men qo'ymayman, aytasiz... gapida biroz asabiylashish, qat'iylik kabi ma'nolar ifodalanadi.*

– *Keling, otajon, ayta qoling! – debdi yigit...* misolida esa yigitning sabri tugagani, ammo qat'iy holatda emas, yalinish ma'nosida qo'llanganligi ifodalangan.

Ota so'zi bilan bog'liq ota kasb birligi ham ertaklarda ko'p qo'llanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ota kasb – ota shug'ullangan kasb, farzandga nisbatan qo'llanadi.

– *Xo'p, o'g'lim, endi aytmasdan ilojim yo'q, aytaman, siz bugun menga mehmon bo'ling, hasratlashib yotamiz, – debdi. – Mening asli ota kasbim egarchilik, bu ishni otamdan o'rganganman. Ota-onamdan bir singlim bilan qoldim, singlim uy ishini qilar, men egarchilik qilib, ro'zg'orimizni o'tkazar edik. Ota-onamizdan keyin uch yil shu ahvolda kun kechirdik* [5; 102].

Yuqoridagi misolda hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shaxsning farzandi ham aynan shu kasb bilan mashg'ul ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham, xalqimiz orasida ham ota so'zi bilan bog'liq "Ota yurt(ota makon)" iborasi keng qo'llanadi. Ushbu ibora xalq ertaklarida ham keng qo'llanadi.

– *Lashkarimizning hisobini ol-chi, qancha ekan! Vazir lashkar hisobini olib chiqibdi. Otlig, piyoda yetti lak lashkar yig'ilibdi, qirq kun yo'l jabdug'ini tayyorlab, eri va lashkari bilan ota shahriga jo'nabdi.*

*Dasht-u biyobonlarni, cho'l-u sahrolarni keza-keza, axiyri, malika o'z ota yurtiga yaqinlashibdi* [5; 80]...

Ota yurt ifodasi xalqimiz nutqida azal-azaldan qo'llanib kelinganligi barchamizga ma'lum. Bu ifodaning tag zamirida ota(bobo)si yashab o'tgan, turmush kechirgan joyi nazarda tutiladi. O'zbek xalq ertaklari ham xalqimiz hayotidagi voqea-hodisalar bilan uzviy bog'liqligini inobatga olib, ota yurt(makon) ifodasi yuqoridagi misolda o'z ifodasini topgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, o'zbek xalq ertaklarida qavm-qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar orasida ota so'zi bilan ifodalanuvchi birliklar keng o'rinni egallaydi. Ertaklarda ifodalanuvchi ushbu birliklarni tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligi oldida turgan muhim jihatlardan biridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2000. – Б. 36.

2. Mumatov A.B. Zumonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma. – Tashkent: "Noshir", 2019, – B. 171.

3. Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. (Ўзбек, уйғур, қозоқ, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида). – Т., «Фан», 1966, – 156 бет.

4. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Ойжамол. Ҳаётий эртақлар. Иккинчи китоб. Доно қиз. Тошкент. – Ғ. Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. 1966 й. – 173 бет.

5. Uchar gilam. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 152 bet.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедиясию Давлат илмий нашриёти, 4 том. 606 бет.

7. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar J-2: – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – (Adabiyot xrestomatiyasi) 298 bet.